



O'ZBEK TILINING RIVOJLANISHIGA XAVF SOLAYOTGAN OMILLAR VA ULARNING OLDINI OLISH

Shodmonova Javhar A'zamjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

shodmonovajavhar@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377552>

Annotatsiya: Bugungi kunda ba'zi tillarning dunyo miqyosida o'rganilib, rivojlanayotgani hech kimga sir emas. Ushbu maqola ham o'z ona tilimizni mana shunday tillar qatoridan joy olishi uchun zarur bo'lgan sa'y-harakatlarni yoritadi. Avvalo, o'zbek tilini rivojlantirishni, uning dunyo tillari qatoridan joy olishini bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur.

Kalit so'zlar: o'zbek tili rivoji, qadimgi turkiy til, qadimgi va zamonaviy o'zbek tili, o'zbek yozuvi, til va nutq, o'zbek tilining lug'at sostavi.

XXI asr - globallashuv davrida har kuni o'nlab, hatto yuzlab tillar "o'lik tillar" qatorini boyitmoqda. O'zbek tilining ham bu qatorga qo'shilmasligi haqida gap ketganda hech kim befarq bo'lmaydi, albatta. Chunki davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ham bir qancha chiqishlari ona tilini e'zozlash, ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitob mutolaasiga alohida e'tibor berishga da'vat etadi.

O'zbek tilining rivojlanishi va uning tarixi ona tilida so'zlashuvchilarning tarixi bilan chambarchas bog'liq. Sababi, har qaysi millatning tili qadimgi davrdayoq tarixan shakllanib, sayqallanib, avlodlarga yetib keladi. O'zbek xalqi kabi bir millatning paydo bo'lishi turkiy va eron tillarini birlashtiruvchi bir qator etnik guruhlarining birlashishi bilan bog'liq edi. Milat paydo bo'lar ekan, shubhasiz, uning tili ham "dunyoga keladi".

O'zbek tili ham rivojlanishi davomida uch bosqichdan o'tib, sayqallanib kelmoqda. Uning dastlabki bosqichi V-XI asrlarga tegishli bo'lib, bu davrda asosiy til qadimgi turkiy tili edi va aynan ushbu til ta'sirida qadimgi o'zbek tili vujudga keldi. Qadimgi o'zbek tili davri ikkinchi bosqich – XI – XIX asrlarga tog'ri keldi va qo'shni tillar ta'sirida rivojlandi. Bu davrda uning rivojiga Alisher Navoiy o'zining ulkan va beqiyos hissasini qo'shdi. Nihoyat, XX asrda zamonaviy o'zbek tilining shakllanishi boshlandi va bu uchinchi bosqich edi. Butun O'zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg'ona lahjasi uning asosini tashkil etdi. XX asr oxirida esa lotin alifbosiga asoslangan o'z yozuviga ega ega bo'ldi. Mana shu davrgacha esa krill yozuvidan foydalanilgan. Aynan mana shu kabi omillar ham tilimiz rivojiga to'siq bo'lgan sabablardan biridir. Bunday omillardan yana biri VIII asr – arablar bosqini davri bo'lib, bu paytda ham o'zbek xalqi arab alifbosidan foydalangan. Bu kabi omillar hozir ham mavjud, faqat boshqa ko'rinishda ya'ni nafaqat yurtimiz, balki butun dunyoni ingliz tili qamrab olmoqda. Albatta, bunga qarshi chora ko'rilmasa, o'zbek tili ham "o'lik tillar" qatoridan joy olishi turgan gap. Buning uchun, avvalo, chet el tajribasini puxta egallagan holatda, dunyo mamlakatlarida o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ushbu tilni o'rganishga zarur bo'lgan chora-tadbirlarni "zinama-zina" ishlab chiqish, nafaqat Yevropa, balki O'rta va Markaziy Osiyoda ham sekinlik bilan tatbiq etish zarur. O'z yurtimizda ham qator islohot va yangilanishlar olib borib, eng avvalo, butun dunyo internet va texnika tarmog'i (Google, MCAPPLE)da o'zbek tilini joriy etish zarur. Chunki aynan yuqoridagi tarmoq va kompaniyalar dunyo miqyosida mashhur bo'lib ulgurani hech kimga mavhum emas. Keyin esa yurtimiz



bo'ylab tadqiqot-tashviqot ishlarini olib borishimiz zarur. Bunga misol tariqasida shuni ayta olamizki, mamlakatimizdagi kafe va restoranlarga o'zbek tilida nom qo'yish, ko'cha-ko'ydagi e'lonlar ham aynan ona tilimizda bo'lishini ta'minlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilini rivojlantirish har bir fuqaroning burchidir. Hech kim bu haqida so'z ketganda bee'tibor bo'lishi kerak emas. Chunki o'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanilib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda ona tilimizga bo'lgan qiziqishni orttirish kerak. Chunki bizning til ham globallashuv jarayoniga faol aralashishi zarur. Til rivojlansa, millat ham rivojlanadi. Til dunyoga yoyilsa, yurtning dong'i ham dunyoga ma'lum bo'ladi. O'zbek xalqi ham mana shunday xalq bo'lishi zarur.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, aziz qadriyatlarini, asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratish eng muhim masaladir.¹

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PO-580-sonli farmoni
2. Zulxumor Xolmanova "Tilshunoslik nazariyasi" "Shafolat Nur Fayz" 2020 o'quv qo'llanma 3-bet
3. Sayfullayeva R, Mengliyev B, , Qurbonova M, , Yunusova Z, Abuzalova M "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanma "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti Toshkent 2006 391-bet
4. Rahmatullayev Sh "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik "O'qituvchi" nashriyoti 2006 476-bet
5. Rasulov R "Umumiy tilshunoslik" darslik "Fan va texnologiya" nashriyoti Toshkent 2013
6. Boymirzayev, A. (2025, July). LEKSIK MA'NO VA SINTAKTIK ALOQA. In Conferences (Vol. 1, No. 1).